



Bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlashning pedagogik-psixologik xususiyatlari

O'rinova Nilufar Muhammadovna –

Farg'ona davlat universiteti professori,
pedagogika fanlari nomzodi (PhD)

E-mail: urinovanilufar15@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0000-0001-5430-1050>

Annotatsiya. ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlash jarayonining pedagogik-psixologik xususiyatlari kompleks yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida tyutorlik faoliyati bo'lajak pedagogning o'quv, ilmiy-tadqiqot, tashkiliy-boshqaruv hamda ma'naviy-ma'rifiy faoliyat turlari bilan uzviy bog'liq kasbiy faoliyat shakli sifatida asoslanadi. Tyutorlik faoliyatini samarali tashkil etish uchun zarur bo'lgan o'quv, axborot, tashkiliy, loyihaviy, metodik, psixologik va baholash yo'nalishlari mazmunan yoritilib, ularning har biri bo'lajak o'qituvchining kasbiy tayyorgarligini shakllantirishda muhim omil ekanligi ko'rsatib beriladi. Tadqiqotda tyutorlik faoliyatining asosiy pedagogik xususiyatlari sifatida shaxsga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirish, ta'lim jarayonini individuallashtirish, talabalarning mustaqil ta'lim olish va hayotiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi metod va texnologiyalardan foydalanish masalalari tahlil etiladi. Psixologik jihatdan esa refleksiya, empatiya, motivatsiyani qo'llab-quvvatlash, kommunikativ kompetentlik va moslashuvchan fikrlash tyutorlik faoliyatining muhim tarkibiy qismlari sifatida asoslanadi. Shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarning tyutorlik kompetensiyasini shakllantiruvchi motivatsion-aksiologik, kognitiv-operatsion va shaxsiy-refleksiv komponentlarning mazmuni ochib berilib, ularning kasbiy tayyorgarlikdagi o'rni ilmiy jihatdan yoritiladi. Tadqiqot natijalari bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlash jarayonini takomillashtirish uchun metodik va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: tyutorlik faoliyati, bo'lajak o'qituvchi, pedagogik tayyorgarlik, psixologik tayyorgarlik, tyutorlik kompetensiyasi, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, refleksiya, motivatsiya, kasbiy kompetensiya.

Педагогико-психологические особенности подготовки будущих учителей к тьюторской деятельности

Аннотация. В данной статье на основе комплексного подхода анализируются педагогико-психологические особенности подготовки будущих учителей к тьюторской деятельности. В рамках исследования тьюторская деятельность обосновывается как форма профессиональной деятельности, неразрывно связанная с учебной, научно-исследовательской, организационно-управленческой и духовно-просветительской функциями будущего педагога. Раскрывается содержание учебного, информационного, организационного, проектного, методического, психологического и оценочного направлений, необходимых для эффективной организации тьюторской деятельности, а также показана их значимость в формировании профессиональной готовности будущих учителей. В исследовании анализируются основные педагогические характеристики тьюторской деятельности, такие как реализация личностно-ориентированного обучения, индивидуализация образовательного процесса, использование методов и технологий, направленных на развитие самостоятельной учебной деятельности и жизненных компетенций обучающихся. С психологической точки зрения рефлексия, эмпатия, поддержка мотивации, коммуникативная компетентность и гибкость мышления обосновываются как ключевые компоненты тьюторской деятельности. Кроме того, раскрывается содержание мотивационно-аксиологического, когнитивно-операционного и личностно-рефлексивного компонентов, формирующих тьюторскую компетентность будущих учителей, и научно обосновывается их роль в профессиональной подготовке. Результаты исследования способствуют разработке методических и практических рекомендаций по совершенствованию процесса подготовки будущих учителей к тьюторской деятельности.

Ключевые слова: тьюторская деятельность, будущий учитель, педагогическая подготовка, психологическая подготовка, тьюторская компетентность, личностно-ориентированное обучение, рефлексия, мотивация, профессиональная компетентность.

Methodology for developing speech culture of primary school pupils through folk oral literature

Annotation. This article analyzes the pedagogical and psychological characteristics of preparing future teachers for tutoring activities based on a comprehensive approach. Within the scope of the study, tutoring activity is substantiated as a professional form of activity that is integrally connected with the educational, research, organizational-managerial, and spiritual-enlightenment functions of a future teacher. The content of the educational, informational, organizational, project-based, methodological, psychological, and assessment-oriented directions necessary for the effective organization of tutoring activities is revealed, and their significance in shaping the professional readiness of future teachers is demonstrated. The study examines the key pedagogical characteristics

of tutoring activity, including the implementation of a learner-centered approach, individualization of the educational process, and the use of methods and technologies aimed at developing students' independent learning skills and life competencies. From a psychological perspective, reflection, empathy, motivational support, communicative competence, and flexible thinking are substantiated as essential components of tutoring activity. In addition, the content of the motivational-axiological, cognitive-operational, and personal-reflexive components that form tutoring competence in future teachers is disclosed, and their role in professional training is scientifically justified. The research findings contribute to the development of methodological and practical recommendations for improving the process of preparing future teachers for tutoring activities.

Keywords: tutoring activity, future teacher, pedagogical training, psychological training, tutoring competence, learner-centered education, reflection, motivation, professional competence.

KIRISH

Zamonaviy oliy ta'lim tizimida ta'lim oluvchilarning shaxsiy ehtiyojlari, qiziqishlari va individual rivojlanish trayektoriyalarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, ta'limda shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, mustaqil ta'limni qo'llab-quvvatlash va hayotiy kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik mexanizmlarni takomillashtirish zarurati ortib bormoqda. Bunday sharoitda tyutorlik faoliyati ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismi sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston oliy ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida ularning o'quv, ilmiy-tadqiqot, tashkiliy-boshqaruv hamda ma'naviy-ma'rifiy faoliyat turlarini samarali amalga oshira olish kompetensiyalarini shakllantirish muhim vazifa sifatida belgilangan. Ushbu faoliyat turlarining barchasi mazmunan tyutorlik funksiyalari bilan uzviy bog'liq bo'lib, bo'lajak pedagoglardan nafaqat fan bo'yicha bilim, balki talabalarga individual pedagogik va psixologik ko'mak ko'rsatish, ta'lim jarayonini rejalashtirish, monitoring qilish va baholash ko'nikmalarini ham talab etadi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim muassasalarida tyutorlik faoliyatini samarali tashkil etish bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik va psixologik tayyorgarlik darajasiga bevosita bog'liq. Tyutorlik faoliyatida refleksiya, empatiya, kommunikativ kompetentlik, moslashuvchan fikrlash va motivatsiyani qo'llab-quvvatlash kabi psixologik omillar muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, tyutorlik jarayonini tizimli tashkil etish uchun o'quv, axborot, tashkiliy, loyihaviy, metodik, psixologik va baholash yo'nalishlarini qamrab olgan kompleks yondashuv talab etiladi. Mavjud ilmiy-pedagogik tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tyutorlik faoliyatiga tayyorlash masalasi ko'proq uning tashkiliy yoki metodik jihatlariga qaratilgan bo'lib, bo'lajak o'qituvchilarning tyutorlik kompetensiyasini shakllantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlarini kompleks tarzda yoritishga ehtiyoj mavjud. Ayniqsa, motivatsion-aksiologik, kognitiv-operatsion va shaxsiy-refleksiv komponentlarning o'zaro uyg'unligi yetarlicha ilmiy asoslanmagan.

Shu sababli, mazkur tadqiqot bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlash jarayonining pedagogik-psixologik xususiyatlarini kompleks yondashuv asosida tahlil qilish, tyutorlik kompetensiyasining tarkibiy komponentlarini aniqlash hamda ushbu jarayonni takomillashtirishga xizmat qiluvchi ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Oliy ta'lim muassasalarida o'qish davrida talabalarni tyutorlik funksiyalarini amalga oshirishga tayyorlash muammosini hal qilish imkoniyatlari talabalik davrining yosh

xususiyatlarida ko'rinadi. Bu davrda o'z-o'zini anglashning sezilarli o'sishi, qaror qabul qilishda mustaqillik va kasbiy faoliyatga qiziqishning yuqoriligi bilan tavsiflanadi. Bizning fikrimizcha, kasbiy yo'nalishning muhim belgisi talabalarning pedagogik faoliyatga, yangi "Tyutorlik" faoliyatini amalga oshirishga bo'lgan qiziqishni yuqori bo'lishi bilan bog'liq. "Ma'lumki, professional yo'nalishni shakllantirish o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida muhim rol o'ynaydi, chunki bilim, ko'nikma, qobiliyat va malaka tizimida professional-pedagogik yo'nalish integrativ, bog'lovchi rol o'ynaydi va kelajakdagi mutaxassisning shaxs sifatida o'zini o'zi o'qitish uchun zarur asos yaratadi".

Bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlashning motivatsion-aksiologik komponenti yangi pedagogik qadriyatlarni anglash, tyutorning turli funktsiyalarini o'zlashtirish zarurligini tushunishga qiziqishni uyg'otish, bo'lajak tyutorlarga shaxsga yo'naltirilgan ta'limning ilmiy va nazariy asoslarini, psixologik va pedagogik asoslarni chuqurroq anglash imkoniyatini beradi.

Bu omillar bo'lajak o'qituvchilarning shaxsiy fazilatlarini shakllantirishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi va ularning o'quvchilarni rivojlantirish uchun samarali usul va texnikalarni o'zlashtirishiga hissa qo'shadi. Shu bilan birga kasbiy va o'quv jarayonida turli xil pedagogik vazifalarni hal qilishga yordam beradi. Motivatsiya sifatida mavjud faoliyatga rag'batlantiradigan barcha narsalarni, insonni harakatga keltiradigan hayotiy maqsadlarni ko'rsatish mumkin. X.Xekxaufen "individ-atrof-muhit" munosabatlari doirasidagi maqsadga yo'nalganlikni motiv sifatida tushunishni taklif qiladi, motivatsiyani esa harakatni maqsadga muvofiqligi deya talqin etadi. [5;408-b]

Pedagogik va psixologik tadqiqotlarda ta'lim motivatsiyasi sifatida ehtiyojlar, qiziqishlar, mazmun, qadriyatlar, ideallar va boshqalar tushuniladi. Maqsadni aniqlashga qaratilgan shaxsning ehtiyojlari biz tomonimizdan motivatsion yo'nalishning dastlabki shartlari sifatida qaraldi. Boshqacha qilib aytganda, bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlikka tayyorlashning motivatsion komponenti tyutorlik funktsiyalarini samarali amalga oshirishda asosiy omil hisoblanadi. Aynan shu motivatsion komponent o'qituvchining asosiy professional xususiyatlari va shaxsiy fazilatlarini shakllanadigan markaziy yadroni tashkil qiladi.

Yuqorida keltirilgan bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorgarligi tavsifiga muvofiq, uning tarkibiy komponentlarining namoyon bo'lishining integral belgilarini ajratib ko'rsatish mumkin. Motivatsion komponentning integral ko'rsatkichi talabaning shaxsiga yo'naltirilgan paradigmaga muvofiq kasbiy faoliyatni takomillashtirishga yo'naltirilganligidir.

T.U.Kulniyazovning fikricha "tyutorning kasbiy faoliyatining sifati – nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar va malakalarning, kasbiy, amaliy, ijtimoiy-pedagogik faoliyatini samarali amalga oshirish, o'z-o'zini rivojlantirishga intilishning shakllanish darajasi bilan bog'liqdir. Tyutorlarning kasbiy tayyorgarligi sifati ularning faoliyatini optimallashtirish jarayonining natijasi sifatida qarash mumkin va bu sifat faoliyatini takomillashtirishning predmeti bo'lishi mumkin. Ana shu sababli tadqiqotda tyutorlarning amaliy faoliyatini optimallashtirish va takomillashtirish, pedagogik boshqaruv tizimining sifatini oshirish, ta'limning barcha subyektlari sifatini oshirish jarayoni, shuningdek, talabalar muhitini uyg'unlashtirishga olib keladigan tashkiliy o'zgarishlar tizimi ekanligi ko'rsatib berildi". [1;28-b]

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tyutorlikda eng muhim rol bu refleksiya–loyihalar, jarayonlar, natijalarning doimiy tahlili asosida ifodalanadi. Samarali fikrlash, muammoni hal qilish, optimal vazifalar, samarali usul, (moslashuvchanlik) tayyorlanish jarayonida namoyon bo'ladi.

Tyutorlik faoliyati quyidagi sifatlari bilan ajralib turadi: ta'lim jarayonini qayta baholash; oldingi natijalar asosida qayta qurish, ta'lim berish; ijtimoiy faoliyat imkoniyatlari

faol ravishda ijobiy tomonga o'zgartiriladi; ma'lumotlarni yangi shartlar bilan yangilash; yangicha fikrlash; moslashuvchan bo'lishga qaratilgan ijodiy jarayon.

Tyutor o'z faoliyati davomida talabalarga ijtimoiy-tarbiyaviy manfaatlarini, ehtiyojlarini qondirish, o'z qobiliyatlarini ko'rsatish, o'z-o'zini baholash va boshqalar bilan birgalikda harakat qilishda maqbul xulq-atvor shaklini tanlash imkoniyatini taqdim etishi kerak.

AQSH pedagoglari, masalan Jon Jems, tyutorlik faoliyatida pragmatizm, ya'ni tarbiyaning amaliy natijalarini ustuvor qo'yishadi. Unga ko'ra, shaxsga kelgusi faoliyatida zarur bo'lgan bilim, fazilatlar va ko'nikmalar shakllantirilishi kerak.

60110100-Pedagogika bakalavriat ta'lim yo'nalishi malaka talabida bo'lajak tarbiya fani o'qituvchisi pedagogik; ilmiy-tadqiqot; ma'naviy-ma'rifiy; tashkiliy-boshqaruv kabi kasbiy faoliyat turlarini olib borishi belgilangan. Bo'lajak o'qituvchini ushbu faoliyat turlari bevosita tyutorlik funksiyalari bilan bog'liq .

Shunday qilib, mahalliy oliy ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchini tyutorlik faoliyatiga tayyorlash jarayonida quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga olgan harakatlar algoritmiga amal qilish zarur: [8;34-b]

- o'quv yo'nalishi;
- axborot yo'nalishi;
- tashkiliy yo'nalish;
- loyihalash yo'nalishi;
- metodik yo'nalish;
- psixologik yo'nalish;
- baholash yo'nalishi .

Ushbu yo'nalishlarning barchasi biz taklif qilgan bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlash tizimi mazmunini tashkil qiladi.

Bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlash mazmuni

1.1-jadval

№	Yo'nalish vazifasi	Mazmuni	Amalga oshirish shakllari
1	O'quv yo'nalishi vazifasi: oliy o'quv yurtlarida bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlashni nazarda tutadi	kadrlarning tayyorgarligi; metodik kadrlarning tayyorgarligi; amaliy kadrlarning tayyorgarligi. psixologik	Tyutorlik bakalavriat yo'nalishida (kunduzgi/sirtqi) o'qitish; tyutorlik dasturlari bo'yicha malaka oshirish; qayta tayyorlash markazlarida o'qitish; konferensiyalar, master-klasslar, seminarlarda ishtirokini ta'minlash.
2	Axborot yo'nalishining vazifasi: tyutorlik faoliyati to'g'risida o'z vaqtida axborot berish va olish, zarur ma'lumotlarni yig'ish hamda tyutorant tomonidan	tyutorlik ishtirokchilarining ehtiyojlarini aniqlash; faoliyati ta'limiy barcha zarur ma'lumotlarni yig'ish, jamlash, tahlil qilish va umumlashtirish; motivatsion sohani aniqlash va uning rivojlanish dinamikasini taxlil qilish.	oliy ta'lim muassasalarida e'lonlar berish; tyutorantlarning barcha yosh toifalari bo'yicha ma'lumotlar bazasini yuritish; tyutorlik hamrohligi ishtirokchilarini o'quv va ma'lumot xususiyatiga ega hujjatlar bilan ta'minlash.

	axborotni anglash sharoitlarini yaratish.		
3	Tashkiliy yo'nalish vazifasi: tyutorlik faoliyatiga bo'lgan individual va jamoaviy ehtiyojlarni aniqlashtirish	kutilayotgan natijalar va hamkorlik sharoitlarini birgalikda muhokama qilish; tyutorlik faoliyati vazifalari va kutiladigan natijalarni muhokama qilish; professional kutilmalarni aniqlashtirish; jamoani shakllantirish; har bir tyutorning faoliyati bo'yicha algoritm va mazmunni ishlab chiqish; tyutorlik faoliyati muddati, vaqti va shakllarini muhokama qilish; rasmiy hujjatlarni rasmiylashtirish.	suhbatlar o'tkazish; tyutorantlarning individual va guruhliy tadqiqotlari natijalarini saqlash, qayta ishlash va talqin qilish; hujjatlar yuritish (tyutor, rahbar va boshqalar).
4	Loyihaviy yo'nalish vazifasi: bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlash jarayonini rejalashtirish	bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlash jarayonining samaradorligini bashorat qilish; turli ish uslublarini tanlash; bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlash jarayonini amalga oshirish bo'yicha vazifalarni taqsimlash; harakatlar ketma-ketligini belgilash; bajarish muddatlarini aniqlashtirish va rejalarni tuzatish imkoniyatlarini ko'rib chiqish	diagnostik va rivojlantiruvchi faoliyatni rejalashtirish; manfaatdor tomonlar bilan aniq muammolarni hal qilish yo'llarini muhokama qilish
5	Psixologik yo'nalish vazifasi: bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlashda faol psixologik-pedagogik ta'sir ko'rsatish	sog'lom psixologik muhit yaratish; tyutorantning ehtiyojlari va muammolarini baholash; talabalar mashg'ulotlardan kutayotgan natijalarni aniqlashtirish; mashg'ulotlarda kommunikativ texnologiyalardan samarali foydalanish	treninglar; psixologik maslahatlar; tyutorantlar bilan individual suhbatlar
6	Metodik yo'nalish vazifasi: tyutorlik faoliyatini samarali amalga oshirilishini ta'minlovchi	eksperimental faoliyatni tashkil etish; talabalar bilan tyutorlik jarayonini tashkil qilish; mahalliy va xorijiy fan sohasida tyutorlik bo'yicha ijobiy tajriba	individual tyutor mashg'ulotlari; guruhli tyutor mashg'ulotlari; muammo asosidagi tyutorial – muayyan javobni

	metodik bazani yaratish	va samarali texnologiyalarni, zamonaviy yutuqlarni joriy etish; tyutorlik faoliyatini jarayonida turli ish usullaridan foydalanish	talab qiladigan muammoni hal qilish asosidagi mashg'ulot; natijaga asoslangan tyutorial – o'qilgan yoki ma'ruzada eshitilgan material asosida muhokamaga beriladigan mavzu; faoliyatga asoslangan tyutorial – oddiygina muhokama yoki muammoni hal qilishdan ko'ra ko'proq faoliyat talab qiladigan mashg'ulotlar; aralash tyutorial – yuqoridagi barcha shakllarning kombinatsiyasi; tyutorlarning hisoboti.
7	Baholovchi yo'nalish vazifasi: talabalar faoliyatining natijalarini baholash	faoliyat natijalarini tahlil qilish; talabalar tomonidan tyutorial mashg'ulotlarda faol ishtirokini baholash; o'zlashtirilgan bilimlarni kasbiy va hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish darajasini aniqlash; jamoada ishlash qobiliyatini baholash; yozma ishlarni (esse ko'rinishida) baholash	testlar; so'rovnomalar; esselar; portfolioni baholash

Mazkur masalalardan ma'lum bo'ladiki, jahon xalqlari pedagogik tajribasida ko'p hollarda tyutorlik faoliyatining amaliy jihatlariga e'tibor qaratiladi. Bugungi kunda ham tyutor ana shu tajribalarni o'rganishi, o'zlashtirishi va amaliy faoliyatda qo'llay olishini taqazo qiladi. Tashkilotda tarbiyachi vazifasini bajaruvchi tyutorlar rejalarida tarbiyalanuvchilarni hayotiy kompetensiyalarni shakllantirish bo'yicha vazifalar olib borilishi zarur.

Bugungi kunda tyutorlik modelini yaratishda quyidagi asosiy prinsiplar muhim sanaladi:

1. Talabalarni nafaqat ta'lim jarayoni, balki hayotiy rivojlanish jarayoniga jalb qilish uchun o'zining faol pozitsiyasini shakllanishiga sharoit yaratish;
2. Talabalarga o'z taqdirini o'zi belgilash, shaxsiy qadr-qiyamatni amalga oshirishda yordam berish;
3. Ta'limda ta'lim oluvchilarning qiziqish va shaxsiy imkoniyatlari, qobiliyatlarini hisobga olish.

Bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlash tuzilmasi quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

– *Psixologik tayyorgarlik* – shaxsning o'qitishga ichki tayyorgarligi, ta'lim muassasasida ishlashga ijobiy munosabati, talabaga va o'qitiladigan fanga qiziqishi va o'z-o'zini o'qitish zaruratini his qilish qobiliyati;

– *Ilmiy va nazariy tayyorgarlik* – ijtimoiy-siyosiy, psixologik, pedagogik va ixtisoslashtirilgan bilimlarning zarur hajmini puxta egallashni ta'minlaydigan nazariy bilimlar tizimini o'zlashtirish;

– *Amaliy tayyorgarlik* – kasbiy ko'nikmalar va amaliy qobiliyatlarni zarur darajada rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarning mavjudligini nazarda tutadi.

Psixologik tayyorgarlik bir qator muhim tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi. Bularga motivlar va maqsadlarni tushunish, kuchli qadriyat hissi, professional majburiyatlar uchun yuqori darajadagi mas'uliyat, qat'iyatlik, faol qaror qabul qilish va mustaqillik kiradi.

XULOSA

Olib borilgan tadqiqot natijalari bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlash zamonaviy oliy ta'lim tizimida muhim pedagogik-psixologik muammo ekanligini ko'rsatdi. Tyutorlik faoliyati bo'lajak pedagogning o'quv, ilmiy-tadqiqot, tashkiliy-boshqaruv hamda ma'naviy-ma'rifiy faoliyat turlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, u ta'lim jarayonini shaxsga yo'naltirilgan, individuallashtirilgan va reflektiv asosda tashkil etishga xizmat qiladi. Tadqiqot davomida tyutorlik faoliyatini samarali amalga oshirish uchun zarur bo'lgan o'quv, axborot, tashkiliy, loyihaviy, metodik, psixologik va baholash yo'nalishlari kompleks tizim sifatida asoslab berildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, bo'lajak o'qituvchilarning tyutorlik kompetensiyasi motivatsion-aksiologik, kognitiv-operatsion hamda shaxsiy-refleksiv komponentlarning o'zaro uyg'un rivoji orqali shakllanadi. Ayniqsa, motivatsiya va kasbiy qadriyatlarni anglash, zarur nazariy bilimlar tizimini egallash, amaliy ko'nikma va refleksiv malakalarni rivojlantirish tyutorlik faoliyatining samaradorligini belgilovchi omillar sifatida namoyon bo'ldi. Psixologik tayyorgarlikning yetarli darajada shakllanishi esa empatiya, kommunikativ kompetentlik, moslashuvchan fikrlash va o'z-o'zini tahlil qilish ko'nikmalarining rivojlanishini ta'minlaydi.

Umuman olganda, bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlash jarayoni pedagogik hamkorlik, metodik ta'minot va psixologik qo'llab-quvvatlashga asoslangan holda tashkil etilgandagina samarali natija beradi. Tadqiqot xulosalari oliy ta'lim muassasalarida tyutorlik faoliyatini tashkil etish va bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqishda nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Kulniyazov T.U. O'zbekistonda yangi ta'lim konsepsiyasi sharoitida tyutorlarning amaliy faoliyatini takomillashtirishning ilmiy-pedagogik asoslari (oliy ta'lim muassasalari misolida): pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoreferati. – Nukus, 2024. – 28 b.
2. Maslou A. Motivation and Personality. – New York: Harper & Row, 1970. – 369 p.
3. Muslimov N.A. Pedagogik kompetentlik va uning shakllanish mexanizmlari. – Toshkent: Fan, 2015. – 176 b.
4. Qo'ysinov O.A. Mustaqil ta'limni tashkil etishning pedagogik asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2016. – 148 b.
5. Xekxaufen X. Motivatsiya va faoliyat. – Moskva: Pedagogika, 2003. – 408 b.
6. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim muassasalarida tyutorlik faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risidagi namunaviy Nizom. – Toshkent, 2022. – 12 b.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son Farmoni "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida". – Toshkent, 2020. – 9 b.
8. Pedagogika oliy ta'lim muassasalari uchun malaka talablari. 60110100 – Pedagogika bakalavriat ta'lim yo'nalishi. – Toshkent, 2021. – 34 b.
9. James J. Pragmatism and Education. – Chicago: University of Chicago Press, 2012. – 214 p.
10. Vygotskiy L.S. Tafakkur va nutq. – Moskva: Pedagogika, 2005. – 352 b.